

Date: 17th November-2025

**“ALPOMISH” DOSTONIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING TAHLILI
(MAKTAB DARS LIKLARI MISOLIDA)**

Asadov Asadbek Murodjon o‘g‘li

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti magistranti

Tursunov Asadbek Umid o‘g‘li

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek xalq dostonlarining mazmun-mohiyati, o‘rganilishi hamda “Alpomish” dostonidagi gaplar misolida leksik va frazeologik jihatdan tahlil beriladi.

Kalit so‘zlar: folklor, folklorshunos, dostonlar, leksik, frazeologik, etnograf, ibora, poetik ijod, nutq uslubi.

Annotation: This article analyzes the content and essence of Uzbek folk epics, focusing on the lexical and phraseological aspects of expressions found in the epic “Alpomish.”

Keywords: folklore, folklorist, epics, lexical, phraseological, ethnographer, idiom, poetic creativity, speech style.

Аннотация: В данной статье рассматривается содержание и сущность узбекских народных дастанов, проводится лексический и фразеологический анализ на примере высказываний из дастана «Алпомиш».

Ключевые слова: фольклор, фольклорист, дастан, лексический, фразеологический, этнограф, фразеологизм, поэтическое творчество, речевой стиль.

Ushbu maqolada biz 9-sinf 2019-yilgi “Adabiyot” darsligida keltirilgan “Alpomish” dostoni asosida tahlil ishlarini olib bordik. Tadqiqot davomida doston matnidagi frazeologik birikmalar hamda leksik birliklar tahlil qilindi. Maqolaning maqsadi — asarda qo‘llangan turg‘un iboralar, so‘z boyligi va ularning badiiy ifoda vositasi sifatidagi o‘rmini aniqlash, “Alpomish” dostonining til boyligi va xalqona uslubini yoritishdan iboratdir.

Dunyodagi ayrim xalqlarda o‘zining tarixiga oid yirik hajmdagi katta muhim voqea bayon etiladigan janrlar bor. Biz o‘zbeklarda bu janr “doston” deb ataladi. “Doston” so‘zi qiziq-qiziq voqealarni hikoya qilish, maqtash ma‘nolarini anglatadi. Badiiy adabiyotimizda asosan ikki usulda yaratilgan dostonlar bor. Birinchisi, asrlar davomida xalq og‘zaki ijodida baxshilar tomonidan og‘zaki tarzda kuylab kelingan dostonlar. Ikkinchisi, yozma shaklda shoirlar tomonidan ijod qilingan dostonlar. “Alpomish”, Go‘ro‘g‘li turkumidagi “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”, “Mashuqa Ayo”, “Ravshan”, “Kuntug‘mish”, “Rustamxon” kabi asarlar og‘zaki dostonlar namunalaridir. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Haydar Xorazmiyning “Gul va Navruz”, Navoiyining “Hayratul abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” kabi asarlari esa yozma adabiyotdagi dostonlar hisoblanadi. Shuning uchun yozma adabiyotdagi dostonlarni og‘zaki adabiyot dostonlaridan ajratib olish lozim bo‘ladi. Og‘zaki ijoddagi doston bir qator tarkibiy qismlardan tashkil topadi. Professor M. Saidov ularni she‘riy va nasriy parchalaridan iborat matndan, musiqadan,



Date: 17th November-2025



doston aytuvchining xofizlik san'atidan va so'z cherta bilishidan iborat deb qayd etadi. Shu bilan birga, doston haqida to'liq tasavvur hosil qilish uchun baxshining bevosita tinglovchilar davrasida qaynab (ilhomga kirib) doston ixtiro etishiga guvoh bo'lish ham muhimdir. Demak, doston bo'lishi uchun baxshining tinglovchi bilan jonli muloqotining ham tarkibiy qismlardan biri sifatida baholash mumkin.

“Alpomish” dostoni ilmiy va badiiy jihatdan mukammal asar bo'lib, u o'zbek xalqining eng qadimiy va eng ko'p o'rganilgan dostonlaridan biridir. Unda o'zbek xalqining uzoq o'tmishi, urf-odatlar, hayot tajribasidan o'tgan an'analari, kurashlari, tashvishlari o'zining badiiy ifodasini topgan. Baxshilar bu dostonni ijro etish darajasi bilan o'lgan. Ustoz dostonchilar o'z san'atlarini ko'pincha “Alpomish”ni kuylash bilan ko'rsatganlar. Muhimi shundaki, o'zbek xalqi, hurmat, bir tekis ravnaq topib, o'zbek millatining hayotini kuylashga harakat qilgan paytda “Alpomish” dostonini kuylashga e'tibor katta bo'lgan.

XX asrning 70-yillariga qadar “Alpomish” dostoniga oid ko'plab mulohazalar Mahmud Zorifov tomonidan yozib olingan Fozil Yo'ldosh o'g'lining 1928-yilgi varianti asosida Hamid Olimjon qisqartirib nashrga tayyorlagan kitobga tegishli edi.

1969-yilda Berdibaxshidan Abdulla Alaviy¹⁰ va 1972-yilda Saidmurod Panoh o'g'lidani Shamsi Murodov yozib olgan nusxalar nashr etilgan.¹¹

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, “Alpomish”ga bo'lgan munosabat ham o'zgardi. Avvalo, Berdi baxshi aytgan doston qayta nashr qilindi. 1998-yilda Xushboq Mardonqul o'g'li (yozib oluvchi Totemir Turdiev), 1999-yilda Bekmurod Juroboy o'g'li (yozib oluvchi Mansur Afzalov) nusxalari alohida nashr etildi.

1998-yilda esa Fozil Yo'ldosh varianti 70 yildan keyin to'liq holatda bosmadan chiqdi. 1999-yilda dostonning ming yillik to'yi katta tantanalar bilan nishonlandi, bu tadbir o'zbek xalqining ajdodlar xotirasini tiklash yo'lida muhim qadamlardan biri bo'ldi.¹²

Leksikologiya va frazeologiya — lug'aviy birliklarning ma'no tuzilishi, ma'nolarning rang-barangligi, so'z va ibora ma'nolarining ko'chish xususiyatlari, polisemiya, sinonimiya, omonimiya, antonimiya kabi hodisalarni o'rganadigan tarmoq hisoblanadi va zamonaviyligiga ko'ra tasniflash, lug'aviy birliklarning nutq uslublariga xoslanganligi kabi masalalar bilan shug'ullanadi. Leksik va frazeologik tahlilda leksema va frazemalar har tomonlama izohlanadi. Ularning ma'nosi, ma'no ko'chganmi yoki yo'qmi, sinonim, antonim, omonimi bormi, zamonaviylik bo'yog'i eskirganmi, istorizm, neologizm va shu kabilar ko'rsatiladi.

Leksikologik va frazeologik tahlilning lug'aviy boyligi, lug'aviy birliklarning ma'no taraqqiyoti, ishlatilish doirasi, zamonaviyligi, nutq ko'rinishlariga xoslanganligi, boshqa

¹⁰ Abdulla Alaviy (1903, Piskent — 1931.7.1, Samarqand) — shoir, adabiyotshunos. Leningraddagi Sharq tillari institutida tahsil ko'rdi va shu o'quv yurtida (1924—1927), Samarqanddagi Pedagogika akademiyasida (1927—1930) dars berdi. Alaviy barmoq vazniga asoslangan o'zbek she'riyatining badiiy imkoniyatlarini kengaytirdi, o'zbek adabiyotidagi sochma (erkin) she'r boshlovchilardan biri bo'ldi. Pskent tumanining Evalak qishlog'ida istiqomat qilgan Berdi baxshi og'zidan „Alpomish“ dostonini yozib olgan (1926)[1].

¹¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Alpomish>

¹² <https://inlibrary.uz/index.php/literary-science/article/view/21141>

tildan o'zlashgan yoki o'zlashmaganligi bo'yicha o'quvchiga mustahkam bilim berishda, ular tomonidan olingan bilimlar darajasini aniqlashda juda qulay metodik usuldur.

Maqolani yozish jarayonida o'zbek tilidagi frazeologik birliklarning semantik, strukturaviy va uslubiy jihatlarini tahlil etishda Sh. Rahmatullayevning "*O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati*"dan asosiy manba sifatida foydalanildi. Ushbu asar frazeologizmlarning kelib chiqish manbalarini, ularning ma'no ko'chish mexanizmlarini hamda zamonaviy o'zbek tilidagi qo'llanish xususiyatlarini ilmiy asosda yoritib beradi. Shuning uchun mazkur lug'at tilshunoslikda amaliy va nazariy ahamiyatga ega manba sifatida qadrlanadi.

Frazeologik tahlil

Bu so'zlarni eshitib, Hakimbek narmoda so'zini ko'ngliga og'ir

olib: "*Narmoda degan gapning ma'nisi nima?*" — *deb turgan ekan...*

Matnda bitta frazeologik birlik bor: *ko'ngliga og'ir olmoq*.

Ko'ngliga og'ir olib – ibora. Frazeologik ma'nosi *adolatsiz deb bilib xafa bo'lmoq, qattiq o'ksinmoq*.

Ko'ngliga og'ir olib - ko'chma ma'noda, ya'ni Hakimbek "narmoda" degan so'zni eshitib, ranjib qoldi, xafa bo'ldi degan ma'noda kelmoqda. Matnda "narmoda" so'ziga nisbatan ishlatilib, ko'ngliga botdi, xafa bo'ldi ma'nolarini anglatadi. Frazeologik birliklarning turiga ko'ra bu ibora frazeologik qo'shilmadir. Chunki iboraning ma'nosi uni tashkil etgan so'zlarning ma'nolaridan iborat. Iboraning uslubiy bo'yog'i unda ifodalangan voqelik haqidagi fikrni

kuchaytirish, emotsional-ekspressivlikni oshirishdan iborat. Monosemantik ibora, birgina *xafa bo'lmoq, o'ksinmoq* ma'nosida ishlatiladi.

Ko'ngliga og'ir olib variantlari bor: *ko'ngliga qattiq olmoq, ko'ngl(i)ga olmoq*. Bulardan tashqari, u *xafa bo'lmoq* leksemasi bilan ham sinonimik

munosabatdadir. Frazeologik antonimlari ham bor: *ko'nglini olmoq, ko'nglini xushlamoq*. *Ko'ngliga og'ir olmoq* ibora o'z qatlamga mansub.

Alpomish kepti deb, men Alpomishning etagidan ushlab keta berayinmi?

Matnda bitta frazeologik birlik bor: *etagidan ushlamoq*.

Etagidan ushlab – ibora. Frazeologik ma'nosi *o'zi uchun yo'l-yoriq ko'rsatuvchi, boshchilik qiluvchi deb tanlamoq*. Ko'chma ma'noda *orqasidan ergashmoq* ma'nosini bildirib kelgan. Ibora asarda Barchin tomonidan Alpomishga nisbat berilib aytilgan. Fe'lli frazeologizm. Iboraning uslubiy bo'yog'i asardagi obrazlilikni oshirishga xizmat qilgan. Monosemantik ibora, birgina yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi ma'nosida ishlatiladi.

Etagidan ushlamoq o'z ma'nosida, ya'ni kiyimning pastgi qismidan ushlamoq. *Etagidan ushlab* variantlari bor: *etag(i)ni tutmoq; etag(i)dan ushlamoq, etag(i)dan tutmoq*. Frazeologik antonim yo'q, lekin *qo'yib yubormoq* leksemasi bilan antonim munosabatda.

Etagidan ushlamoq ibora o'z qatlamga mansub.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, xalq og'zaki ijodi, ayniqsa dostonlar, insonlar hayotida muhim o'rin tutadi. Ushbu maqolada "Alpomish" dostonining leksik va frazeologik tahlili



Date: 17th November-2025

o'rganildi. Bunday tahliliy yondashuv asardagi so'z va iboralarning ma'nosini chuqurroq anglashga, dostonning badiiy-estetik qiymatini to'liqroq ochishga xizmat qiladi.

Biz bu maqolada "Alpomish" dostonini leksik va frazeologik tahlil asosida ko'rib chiqdik. Bu tahliliy metod hisoblanadi. Bu metod orqali "Alpomish" dostonining matnidagi ba'zi so'zlarning leksik ma'nosi va bundan tashqari frazeologik ya'ni, iboraviy ma'nosi bilan tanishib chiqdik. Bu kabi o'rganishlar dostonlarni yaxshiroq anglashda ijobiy natijalar beradi. Maqolada biz 9-sinf 2019-yilgi "Adabiyot" darsligida keltirilgan "Alpomish" dostoni asosida tahlil ishlarini olib bordik. Tadqiqot davomida doston matnidagi ayrim frazeologik birikmalar tahlil qilindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zohidov T., Qosimov B., Mamajonov S. va boshqalar. Adabiyot. 9-sinf uchun darslik.— T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2019-yil. — 8–47-b.
2. Rahmatullayev, Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008. – 161–292-b.
3. Zarifov M. O'zbek xalq qahramonlik eposi ("Alpomish"). — Toshkent: Fan, 1959. — 312-b.
4. Olimjon H. Alpomish haqida. — Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1940. — 48-b.
5. <https://inlibrary.uz/index.php/literary-science/article/view/21141>
6. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Alpomish>